

Korrupsiya – bu taraqqiyotimiz kushandasi

Fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan eng dolzarb muammolardan biri bu korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi ekanligini, barcha iqtisodchilar va ma'rifatparvarlar insonlar qayd etishgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandasi, Jamiyatlar, korxonalar va Davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, savdo, investitsiya va madaniy – ma'rifiy hamkorlikning barqaror va intensiv rivojiga mislsiz ravishda to'siq bo'ladigan illatlar xam aynan shu korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvidir.

Avval G'arb, keyinroq Osiyo va Afrika davlatlarida bu illatlar chuqurlashib ildiz o'tdi, butun dunyo hamjamiyatida – ushbu illatlar ta'siri, ko'lami va darajasi o'sib borayotgan ekan, bu illatlarga qarshi qanday kurashish kerak degan talab paydo bo'ladi. Qanday chora – tadbirlar ishlab chiqilsa va amalga oshirilsa, mamlakatlar iqtisodiyoti va ho'jlaik hayotiga raxna solayotgan bu ko'zga ko'rinmas baloni ta'sir kuchi va doirasi kamayadi?

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u Jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir – biriga chirmashib ketganligini tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Aktiv fuqarolar, ma'rifatparvarlar, siyosatshunoslar, tarixchilar va Jamiyat barcha a'zolari ushbu illatlarni tahlil qilishi va to'laqonli yechimini topish ustida bosh qotirishlari lozim.

Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya Jamiyatimiz rivojlanishiga, demokratik islohotlar, yangilanish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib kelayotgan bo'lsada va ijtimoiy tarmoqlarda mansabdor shaxslarning “poraxorlik va tamagirlik” bilan qo'lga tushganlari namoyish etib borilayotganiga qaramasdan ushbu illat Jamiyatimiz hayotidan butunlay daf bo'lmayabdi.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan mamlakatimizda Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur va Shvetsiya tajribasiga o'xshagan yuqoridan quyigacha qat'iy ishlaydigan iyerarxiya tizimi ishga tushurilmoqda. Bu tabiiy jarayonni sun'iy ravishda sekinlashtirmaslik har bir korxonalar va tashkilotlar oldiga vazifa qilib qo'yilgan.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi – mamlakatimiz, xalqimiz taqdiri, davlatchiligimiz, Jamiyatimiz kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamonda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishayotgan Yaponiya, Singapur va Xitoyliklar ham o'z xalqi milliy an'analarini saqlab qolish, diniy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik mafkurasini ongga singdirish orqali milliy taraqqiyotga erishdilar.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi – taraqqiyotimiz kushandasi, farovon hayotimizga tahdid soluvchi xavfli illat. Bu illatlarga qarshi kurashish huquq tartibot organlarigina vazifasi emas, balki barchamizning ishimiz, maqsadimiz va o'yimizga aylanishi darkor.

Kombinat ishchi xodimlaridan korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini mas’uliyat bilan ishtirok etishlarini so‘rayman. Sizlarni befarq bo‘lmaslikka, poraxo‘rlik va korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashishda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

**Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya
qilish departamenti direktori Xojiyev T.T.**